
“Besh tashabbus olimpiadasi” g‘oliblari taqdirlandi

Qo‘sh tepa tumanidagi Madaniyat markazida “Besh tashabbus” olimpiadasi tuman bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tantanali tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari qatnashdi.

Tadbirda tuman rahbari A.Abdullayev so‘z olib yoshlarni yangi yil bayrami va erishgan muvaffaqiyatlari bilan samimiy tabrikladi.

Tadbir davomida “Besh tashabbus” olimpiadasi tuman bosqichi g‘olib va sovrindorlari hamda yil davomida turli yo‘nalishlarda o‘z iqtidorlarini namoyish etib yutuqlarga erishgan 130 nafar yoshlar diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, sektor rahbarlari ishtirokida mahallalardagi yoshlar yetakchilariga ham tuman hokimining tashakkurnomalari va esdalik sovg‘alari topshirildi.

2024-12-21 14:43:34